

TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

*Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi**Namangan davlat universiteti**Ta'lif menejmenti kafedrasini o'qituvchisi*

Annotation: Tarbiyasi og'ir bolalar - tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z holiga tashlab qo'yilgan bolalardir. Tarbiyasi og'ir bolalar nafaqat oilaning balki, jamiyatning ham og'riqli masalasidir.

Kalit so'zlar: stress, krizis, emotsiyonal holat, psixik kasalliklar, irsiyat, nevroz.

Jamiyatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy muommolardan biri tarbiyasi og'ir o'quvchilardir. Barchamizga ma'lum bo'lganidek, dunyoda va jamiyatda sodir bo'layotgan kuchli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, ommaviy-axborot vositalari va ularni inson hayotiga jadallik bilan kirib kelishi, insonning emotsiyonal-ruhiy holatiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Chunki, bu jarayonlar ham jismoniy ham ruhiy zo'riqishlar bilan bog'liq. Shunday muhit va sharoitlarga bardosh bera olmagan shaxslarda stress, krizis holati yuzaga keladi. Bu esa bolalarda xulqi og'ishlik bilan o'zini namoyon eta boshlaydi. Tarbiyasi og'ir bolalar nafaqat oilaning balki, jamiyatning ham og'riqli masalasidir. Tarbiyasi og'ir bolalar - bular tarbiyada e'tibordan chetda qolgan, o'z holiga tashlab qo'yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo'l qo'yilgan xatolar, tarbiyada ularga individual yondasha bilmaslik natijasida paydo bo'lgan. Boshqacha aytganda, normal ta'lif –tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari bilan normal munosabat o'rnata olmagan, qalb tug'yonlarini oshkor etishning to'g'ri yo'llarini topa bilmagan bolalar-tarbiyasi og'ir bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o'z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta'siri o'tkazilmasa, noxush voqealar sodir bo'lishi mumkin.

Olimlarning kuzatishicha, kichik yoshdagi bunday bolalarning o'ndan to'qqiz qismi oila sharoitida tarbiyalanadi. Bunday oilalarda ota-onalar farzandlariga yetarli darajada e'tibor bermaydilar yoki ularni erka qilib o'stiradilar. Onalar esa bolalarining yomon xulq-atvorini, xatti-harakatlarini otalaridan yashiradilar. Oqibatda bunday oiladagi bolalar ko'zbo'yamachi, xudbin, faqat o'z foydasini ko'zlaydigan bo'lib o'sadilar. Ba'zi ota-onalar farzandi ust-boshining but bo'lishini o'ylaydilar-u, ularning ichki dunyosi, ma'naviy ehtiyojlari haqida qiziqmaydilar. Tarbiyaga nisbatan bunday munosabat tarbiyasi og'ir bolalarning ko'payishiga sabab bo'ladi.

Ota-onalar ta'lif-tarbiya jarayonini maqsadga yo'naltirilgan holda muvaffaqiyatli olib borishi uchun avvalo asotsial xulq-atvor bilan anomal xulq-atvor

o'rtasidagi farqni va ularning nimaligini tushunib olishlari kerak. Odatda axloq normalariga va jamiyat talablariga javob bermaydigan xulq-atvor va xatti-harakatlar bola miyasining patologiyasi tufayli ro'y beradi. Asotsial xulq-atvor esa mikromuhitning salbiy ta'sir ko'rsatishi, oiladagi mavjud nonormal o'zaro munosabatlar, oila va maktabda beriladigan tarbiyada yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va hokazolar tufayli ro'y beradi.

Tarbiyasi og'ir bolalar avvalo qaysar, injiq bolalar. Ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma'lum bir qismi intizomsiz, qo'pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o'zgartirish, ularga ba'zi bir huquqlarni berish yo'li bilan ularga ta'sir o'tkazish mumkin.

Shuni aytish lozimki, "tarbiyasi og'ir" bolalar uchun ular yashayotgan muhit, oila, ular o'qiyotgan jamoa, sinfning roli juda katta. Shuning uchun ham ularni tarbiyalashda aynan ular yashayotgan muhitdagi insonlarning bilim darajasi, dunyoqarashi ahamiyatlidir.

I.S.Vigotskiy shunday degan edi: tarbiyasi og'ir bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. Haqiqatdan ham ko'p hollarda o'quvchilarning xulqida og'ish holatlari yuzaga kelishida pedagoglarimiz ham aybdor bo'lib qolyapti. Ya'ni, bola shaxsini hurmat qilmaslik, ta'lim jarayonidagi adolatsiz baholash, o'quvchining xarakter-xususiyatlarini bilmaslik holatlari o'quvchi va o'qituvchi o'rtaida bir qator muommoli vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda.O'quvchilarni tarbiyalashda o'qituvchi yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolar mavjud.

Birinchi xato- o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini bilmaslik yoki e'tiborga olmaslik. Bola o'zining individualligi bilan boshqalarga o'xshamaydi, u betakror. Uning o'ziga xos individual xususiyatlarini bilmay turib o'quv-tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq tashkil etish va o'quvchilarga puxta bilim berish mumkin emas.

Ikkinchi xato- bolalarda ro'y berayotgan fikrlash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmaslik, ularning bilimlariga ortiqcha baho berish yoki aksincha, o'quv jarayonida o'rtacha o'quvchiga qarab ish yuritish, bolalardan har birining nerv sistemasi xususiyatini e'tiborga ola bilmaslikdir. Ayrim bolalar muayyan sharoitda darxol to'g'ri yo'l topa oladilar, vazifalarni tez bajaradilar, boshqalari esa sustkash, harakatlari ham erkin , bemalol emas. Uchinchilarda bilimlarni o'zlashtirish sur'ati juda sekin va hakozo.

Agar o'quvchiga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa uning o'qishda orqada qolishi kuchayadi. U jamoada psixologik muvozanatsizlik, yolg'izlik, ishonchsizlik ranj-alam hissini boshdan kechiradi. Pedagogik jihatdan qarovsiz bolaning uzoq vaqt yomon holatda bo'lishi uning shaxsini o'zgarishiga olib kelmaygina qolmay, balki yana tashkil etilgan va ijobjiy yo'nalişda bo'lgan jamoaning unga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytirib yuboradi. Donishmandlarning aytishicha, bola tanqidiy ruhda yashasa, u ayblashni

o'rganadi. Agar bola adovat bilan yashasa, u urishishni o'rganadi. Agar bola qo'rquvda yashasa, u qo'rqoqlikni o'rganadi. Agar bolaning ustidan ko'p kulishsa, bola uyatchanlikni o'rganadi. Agar bola qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o'rganadi. Agar bola qo'llab-quvvatlash bilan yashasa, u o'ziga ishonishni o'rganadi. Agar bola rostgoylik vaadolatda yashasa, u haqiqat vaadolat nimaligini o'rganadi. Agar bola do'stlik bilan yashasa, u yer yuzi yashash uchun ajoyib joy ekanligini anglaydi.

Tarbiyasi og'ir o'quvchini tushunish, uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va uning rivojlanishini davom ettirish uchun faqat tarbiyasi og'ir o'quvchilarni tashqi belgisini ko'ra bilishgina emas, balki avvalo tarbiyasi qiyinlik manbaalarini o'rganish lozim. Yomonlikka qarshi kurashishdan oldin, uni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etishga qodirligingizni o'ylab ko'ring. Hayoti va tarbiyasining noqulay sharoitlarida ba'zi bolalarda krizis ya'ni jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishdagi jiddiy o'zgarishlar davrida qiyinchiliklar paydo bo'lishini sezish qiyin emas. Bolaning jismoniy rivojlanishidagi chetga chiqishlar psixik omil sifatida ham namoyon bo'ladi va jismoniy nosog'lom bolalarning emotsiyal holatiga ta'sir etadi. Bunday bolalarning psixik rivojlanishida ham chetga chiqish kuzatiladi: psixikaning ayrim funksiyalari notekis rivojlanadi yoki rivojlanishdan orqada qoladi, surunkali psixik kasalliklar, yomon irsiyat, nevroz va hakozo. Bularning hammasi bolalarning xulq-atvorida tajovuskorlik, dag'allik, qo'pollik, urushqoqlik, o'y-hayolga botish, loqayd bo'lib qolish, beparvolik paydo bo'lishida ifodalanadi. Tabiiyki, bunday holda bolalarning ta'lim-tarbiyasida qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

“Bu yorug’ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi¹”. Shunday ekan, hayotimiz mazmuni bo'lgan farzandlarimiz tarbiyasiga e'tibor eng asosiy vazifamizdan biri bo'lmog'i lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008
2. www.Ziyonet.uz
3. www.google.uz

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176-б.